

## Q'ZBEK VA QIRG'IZ GRAFIK TERMINLARI TARIXIGA BIR NAZAR

Ubaydullayeva Maftuna Azamatovna,  
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, (PhD)

## A LOOK AT THE HISTORY OF UZBEK AND KYRGYZ GRAPHIC TERMS


Ubaydullaeva Maftuna Azamatovna,  
Samarkand State University named after Sharaf Rashidov  
associate professor of the Department of Uzbek language and  
literature, Faculty of philology, (PhD)

## ВЗГЛЯД НА ИСТОРИЮ УЗБЕКСКИХ И КИРГИЗСКИХ ГРАФИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Убайдуллаева Мафтуна Азаматовна,  
Самаркандский государственный университет имени Шарафа  
Рашидова доцент кафедры узбекского языка и литературы  
филологического факультета, (PhD)



<https://orcid.org/0000-0001-8899-1416>  
e-mail:  
maftunaubaydullaeva  
08@gmail.com



**Annotatsiya:** Grafik terminlar yozuv tizimi, visual aloqa va axborotni tasvirlash usullarini qamrab oluvchi keng tushuncha hisoblanadi. O'zbek va qirg'iz tillari turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, tarixan va madaniy jihatdan bir-biriga yaqin aloda bo'lgan. Har ikki tilning grafik terminlari madaniyatlararo ta'sirning, shuningdek, jamiyat va texnologiya rivojlanishining yorqin ko'zgusidir. Ushbu maqolamizda ikki tilning grafik terminlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi va zamonaviy holatini bosqichma-bosqich tahlil qilib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** grafika, harf, tovush, alfavit, bitig, lavh, belgi, bosmaxona, tipografiya.

**Annotation:** Graphic terms are a broad concept covering the writing system, visual communication, and information imaging techniques. Uzbek and Kyrgyz belong to the Turkic language family and have historically and culturally been closely related aloda. The graphic terms of both languages are a vivid mirror of intercultural influence, as well as the development of society and technology. In this article, we will analyze step by step the emergence, development and modern state of the graphic terms of the two languages.

**Key words:** graphics, letter, sound, Alphabet, scroll, plaque, sign, printing, typography.

**Аннотация:** Графические термины - это широкое понятие, охватывающее систему письма, визуальную коммуникацию и способы представления информации. Узбекский и киргизский языки принадлежат к тюркской языковой семье и исторически и культурно тесно связаны друг с другом. Графические термины обоих языков являются ярким отражением межкультурного влияния, а также развития общества и технологий. В этой статье мы рассмотрим поэтапный анализ возникновения, развития и современного состояния графических терминов двух языков.

**Ключевые слова:** графика, буква, звук, алфавит, битиг, табличка, символ, типография, типография.

**Kirish.** “Grafika” soʻzi grekcha “grapho” – yozaman soʻzidan olingan boʻlib, tildagi tovushlarni koʻrsatuvchi shakliy vosita tizimidir. Har bir tovush uchun olingan maxsus shakl harf deyiladi. Tovush koʻrsatmaydigan shakl esa belgidir. Tildagi muayyan tartib bilan joylashtirilgan harflar va belgilar tizimi alfavit deyiladi [1,2]. Mazkur tahlil har bir davrning oʻziga xos xususiyatlari, yozuv tizimidagi oʻzgarishlar va chet tillarining taʼsiri natijasida paydo boʻlgan terminologik boyishni atroflicha oʻrganadi. Bu nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va tarix nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Turkiy qabilalarning eng qadimiy yozma yodgorliklari milodiy VIII asrga oid Oʻrxun-Enasoy yozuvi bilan bogʻliq. Ushbu yozuv tizimi 40 ga yaqin harfdan iborat boʻlib, asosan, toshlarga, baʼzan esa yogʻoch va metalga oʻyib yozilgan. Bu bitiklarda turkiy madaniyat va davlatchilikning ilk namunalari aks etgan. Oʻsha davrga oid bitiklarda “bitig” (yozuv, xat) va “tamgʻa” (belgi, muhr, shu jumladan urugʻ yoki qabila belgisi) kabi dastlabki grafik terminlar uchraydi. “Bitig” soʻzi “bitmoq” feʼlidan kelib chiqqan boʻlib, yozish jarayonini anglatgan. “Tamgʻa” esa oʻziga xos shakllarga ga boʻlib, narsalarga, mollarga yoki hududlarga egalikni bildirgan. Bu terminlar turkiy xalqlarning ilk yozuv madaniyati va vizual aloqaga boʻlgan ehtiyojini koʻrsatadi.

Tosh bitiklarning yaratilish uslubi, yaʼni toshga oʻyib bitish jarayoni ham oʻziga xos terminlarni keltirib chiqargan. Ular bugungi kungacha saqlanib qolgan noyob tarixiy manbalar hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** XV asrda temuriylar davri, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan bogʻliq boʻlgan turkiy til oʻzining eng yuksak choʻqqisiga chiqdi. Bu davrda nafaqat adabiyot, balki sanʼatning boshqa turlari, jumladan, husnixat (xattotlik) sanʼati ham misli koʻrilmagan darajada rivojlandi. Xattotlar tomonidan yaratilgan qoʻlyozma kitoblar nafaqat matn, balki sanʼat asari sifatida ham qadrli boʻlgan. Husnixat sanʼatining rivojlanishi bilan birga yangi terminologiya ham shakllandi. Masalan, “nastaliq”, “nasx”, “suls” kabi turli xattotlik uslublari oʻziga xos atamalar bilan ifodalana boshladi. Har bir uslubning oʻziga xos yozish qoidalari, harflarning shakllari va oʻzaro

bogʻlanish prinsiplari boʻlgan. “Nastaʼliq” uslubi oʻzbek adabiyoti uchun ayniqsa muhim boʻlib, nozik va oqilona yozuv uslubi sifatida tan olingan. Shuningdek, kitob bezaklari, minatyura sanʼati va muqovalashga oid terminlar ham paydo boʻldi. “Lavh” (sahifa sarlavhasi bezagi), “gul” kitob bezaklari elementlari), “zanjir” (muqova chetidagi bezak) kabi soʻzlar qoʻlyozma kitoblar yaratish jarayonidagi murakkablikni aks ettiradi. Bu davr grafik terminlarning boyishi va takomillashuvida muhim bosqich boʻldi.

XIX asr oxiri va XX asr oshlarida Oʻrta Osiyoning Rossiya imperyasi taʼsiriga kirishi mintaqaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga jiddiy taʼsir koʻrsatdi. Bu davrda Yevropa texnologiyalari, jumladan, poligrafiya (bosmaxona) texnologiyalari ham kirib keldi. Bu esa, oʻz navbatida, oʻzbek va qirgʻiz tillarining grafik terminologiyasiga yangi soʻzlarning qoʻshilishiga sabab boʻldi. Bu davrga kelib poligrafiya texnologiyalari, yaʼni bosmaxonalarning paydo boʻlishi matbaa mahsulotlarini ommaviy ishlab chiqarish imkonini berdi. Natijada “bosmaxona”, “tipografiya” kabi yangi soʻzlarning kundalik hayotga kirishiga olib keldi.

Bundan tashqari rus tilidan oʻzlashgan “shrift” (ruscha “шрифт” – yozuv turi, harf oʻlchami), “nashr” (ruscha “издание” – bosma mahsulot), “sahifa” ruscha “страница” – kitob varagʻi) kabi yangi terminlar keng tarqaldi. Bu davrda Oʻrta Osiyoda dastlabki gazeta va jurnallar, shuningdek, dunyoviy mazmundagi kitoblar bosma shaklda nashr etila boshlandi. “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Oina” kabi nashrlar maʼrifatparvarlik harakatining muhim vositasiga aylandi. Bosma mahsulotlarning koʻpayishi aholi oʻrtasida savodxonlikni oshirishga va axborotning tezroq tarqalishiga xizmat qildi. Bu esa grafikaga doir terminlarning amaliy qoʻllanilishini yanada kengaytirdi.

**Muhokama.** XX asrning 20-yillari oxirida Sovet Ittifoqi tarkibidagi turkiy respublikalarda, jumladan, Oʻzbekiston va Qirgʻizistonda lotin alifbosiga oʻtish harakatlari boshlandi. Bu harakatlar savodxonlikni oshirish, eski yozuv tizimi – arab yozuvidan voz kechish va turkiy tillarni rus tiliga yaqinlashtirish siyosatining bir qismi edi. Xususan, Oʻzbekistonda 1929-yildan 1940-yilgacha lotin alifbosidan foydalandi. Bu

holat Qirg'izistonda ham bo'lgan. Mana shu davr tillar tarixida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Yangi alifboga o'tish bilan birga grafik terminlarda ham standartlashuv jarayonlari amalga oshirildi. Masalan: "harf" – letter, "tovush" – sound, "bo'g'in" – syllable kabi terminlar yangi alifboning fonetik tamoyillariga mos ravishda qayta ko'rib chiqildi. Bu davrda alifbo o'zgarishi bilan bog'liq ko'plab muhokamalar va ilmiy izlanishlar olib borildi, bu esa grafik terminlarning yangi talqinda qo'llanishiga sabab bo'ldi [3,4].

1940-yilda Sovet Ittifoqi tarkibidagi barcha turkiy respublikalarda, shu jumladan, O'zbekiston va Qirg'izistonda ham lotin alifbosidan kirill alifbosiga majburiy o'tilgan. Bu o'tish til siyosatining markazlashuvi va Sovet ideologiyasining ta'sirini aks ettirdi. Kirill alifbosining joriy etilishi bilan birga, ko'plab grafik terminlar rus tilidan o'zlashtirildi va keng qo'llanila boshladi. masalan, "grafika" – ruscha "графика", "alifbo" – ruscha "алфавит", "belgi" – ruscha "знак", "punktatsiya" – ruscha "пунктуация", "abzats" – ruscha "абзац" kabi so'zlar rus tilidagi shaklida o'zbek va qirg'iz tillarining leksik qatlamiga kirib kelgan. Sovet davrida o'quv adabiyotlari, matbuot va ilmiy ishlar uchunyagona standart terminologiya joriy etildi, bu esa tillardagi grafik terminlarning bir xil qo'llanilishini ta'minladi.

1991-yilda O'zbekiston va Qirg'iziston mustqallikka erishgach, har bir davlat o'zining til siyosatini belgilashga kirishdi. O'zbekiston 1993-

yilda kirill alifbosidan lotin alifbosiga qayta o'tish to'g'risida qonun qabul qildi va bu bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Qirg'izistonda esa kirill alifbosini saqlab qolgan bo'lsa-da, lotin alifbosiga o'tish bo'yicha munozaralar va qiziqishlar mavjud. Raqamli texnologiyalar, internet va axborot asrining kirib kelishi grafik terminologiyani yanada boyitdi. "Kompyuter grafika", "dizayn", "interfeys", "piksel", "veb-sahifa" "blog", "elektron kitob" kabi yangi atamalar tilimizga kirib keldi. "Shrift" – font, "format" – file format, "kod" – programming code kabi an'anaviy terminlar ham zamonaviy, raqamli kontekstda keng qo'llanilmoqda. Bu davr tillarning rivojlanishida yangi bosqichni belgilab, grafik terminologiyaning dinamik o'sishiga olib keldi. Ayniqsa, ingliz tilidan o'zlashgan ko'plab terminlar faol ravishda ishlatilmoqda. Qirg'iz tilda grafika nimani o'rganishi haqida quyidachicha ma'lumot berilgan.

**Natijalar.** Графика – тигил же бул тилдеги тамгалар менен алардын айкаштарынын ошол тилдеги тыбыштар менен алардын айкаштарына болгон катышын жөнгө салуучу эрежелердин топтому. Жөнөкөйлөштүрүп айтканда, графика деп алфавитдагы кайсы тамга аркылуу тилдеги кайси тыбыш(фонема) белгилене тургандыгын аныктоочу эрежелердин жыйындысын түшүнүүгө болот [2,57].

Quyida o'zbek va qirg'iz grafik terminlarining qiyosiy tahlilini ko'rib o'tamiz.

| <i>Xususiyat</i>                                     | <i>O'zbek tili</i>                                                                        | <i>Qirg'iz tili</i>                                                                                        |
|------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Umumturkiy va arabcha o'zlashmalar</i>            | <i>"Yozuv", "harf", "kitob", "qalam", "nusxa"</i>                                         | <i>"Jazuu", "arip", "kitap", "karandash", "nuska"</i>                                                      |
| <i>Kirill alifbosidan qolgan ruscha o'zlashmalar</i> | <i>"Shrift", "punktatsiya", "abzats", "gazeta", "jurnal"</i>                              | <i>"Shrift", "punktatsia", "abzats", "gazeta", "jurnal"</i>                                                |
| <i>Alifbo farqlari</i>                               | <i>Lotin alifbosidagi o'ziga xos harflar: O', G', Ch, Sh</i>                              | <i>Kirill alifbosidagi o'ziga xos harflar: Y, H, O</i>                                                     |
| <i>Mustaqillikdan keyingi terminologik farqlar</i>   | <i>Kompyuter, dizayn, sayt, dastur kabi inglizcha o'zlashmalar tezroq kirib kelmoqda.</i> | <i>Ruscha va inglizcha o'zlashmalar birga qo'llanilishi, ba'zi hollarda kirill asosidagi moslashuvlar.</i> |

O'zbek va qirg'iz tillarining grafik terminologiyasini qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy ildizlari va farqlarini aniqlash imkonini beradi. Ikkala tilda ham umumiy turkiy "yozuv", "qalam" va arabcha o'zlashmalar "harf", "kitob"

mavjud bo'lib, bu ularning umumiy madaniy merosidan dalolat beradi. Kirill alifbosidan foydalanish davrida kirib kelgan ko'plab ruscha o'zlashmalar "shrift", "punktatsiya", "abzats" ikkala tilda ham faol qo'llaniladi. Biroq,

O'zbekistonning lotin alifbosiga qayta o'tishi natijasida ba'zi harflar va ularning terminologik ifodalarida farqlar paydo bo'ldi. Mustaqillik davridagi raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ham terminologik farqlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda, bunda o'zbek tiliga inglizcha terminlar ko'proq kirib kelsa, qirg'iz tilida ruscha va inglizcha o'zlashmalar birga qo'llanilishi kuzatilmoqda.

**Xulosa.** O'zbek va qirg'iz tillaridagi grafik terminlar boy va murakkab tarixga ega bo'lib, turli davrlardagi madaniy, siyosiy va texnologik o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. O'rxun-Enasoy yozuvidan boshlab, arab yozuvi, chig'atoy davri xattotlik san'ati, Rossiya imperiyasi ta'siri, lotinlashtirish, kirillashtirish va mustaqillik davridagi raqamli texnologiyalar davrlarining har biri o'ziga xos terminologik boyish va o'zgarsihlarni olib keldi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Grafika\\_\(tilshunoslik\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Grafika_(tilshunoslik))
2. Орузбаева Б., Турсунова А., Сыдыков Ж., Акматалиев А., Мусаев С., Садыков Т./ Азырки кыргыз адабий тили. Бишкек. – 2009. – Б. 57.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. – T, 1980.
4. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent 2007.
6. M.T. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent. Yangi asr avlodi-2009.
7. Karimov S.A. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand. 2012.

